

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
82sahifa, avgust, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- | | |
|---|--|
| 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi | 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish |
| 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari | 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar |
| 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash | 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari |
| 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari | 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik |
| 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti | 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti |
| 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi | 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi |
| 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari | 08.00.02 – Makroiqtisodiyot |
| 05.01.07 – Matematik modellash | 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti |
| 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt | 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti |
| 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik | 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti |
| 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari | 08.00.06 – Ekonometrika va statistika |
| 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti | 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit |
| 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash | 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit |
| 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi | 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti |
| 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari | 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti |
| 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari | 08.00.11 – Marketing |
| 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi | 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot |
| | 08.00.13 – Menejment |
| | 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari |
| | 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti |
| | 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya |
| | 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati |

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustaf o Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida.....	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlari	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	



NORASMIY BANDLIKNING YASHIRIN IQTISODIYOT SHAKLLANISHI VA DINAMIKASIGA TA'SIRINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Xasanov Jaxongir Jamshidovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
Jahon iqtisodiyoti mutaxassisligi magistratura bosqichi talabasi
E-mail: jonixasanovaag@mail.com, +998907103301

Ilmiy rahbar: Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
"Xalqaro iqtisodiyot" kafedrası professori, i.f.d

Annotatsiya: Hozirgi davrda yashirin iqtisodiyot mamlakatlarning iqtisodiy tizimlari va davlat siyosatiga sezilarli darajada putur yetkazuvchi global miqyosdagi murakkab muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu hodisani shakllantiruvchi asosiy omillardan biri norasmiy bandlik darajasining yuqoriligi hisoblanadi. Mazkur maqolada norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishiga va milliy iqtisodiy tizimning barqarorligiga nisbatan salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, norasmiy bandlikning amaliy jihatlari va dinamikasi O'zbekiston Respublikasi misolida o'rganilib, uning makroiqtisodiy rivojlanish sur'atlari hamda institutsional sifat ko'rsatkichlariga ta'siri yuzasidan ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, norasmiy bandlik, noqonuniy faoliyat, budjet, soliq, bozor iqtisodiyoti, mehnat bozori, mehnat qonunchiligi, mehnat huquqi, davlat va xususiy bandlik, makroiqtisodiy tahlil, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract: In the contemporary period, the shadow economy has emerged as one of the complex global phenomena that significantly undermine the economic systems and public policies of nations. One of the key factors contributing to its formation is the high level of informal employment. This article examines the adverse impact of informal employment on the formation of the shadow economy and the stability of the national economic system. Furthermore, it explores the practical aspects and dynamics of informal employment in the context of the Republic of Uzbekistan and provides scholarly conclusions regarding its influence on macroeconomic growth rates and institutional quality indicators.

Keywords: shadow economy, informal employment, illegal activities, budget, taxation, market economy, labor market, labor legislation, labor law, public and private employment, macroeconomic analysis, economic stability.

Аннотация: В современный период теневая экономика выступает как один из сложных глобальных феноменов, наносящих существенный ущерб экономическим системам и государственной политике стран. Одним из ключевых факторов, способствующих её формированию, является высокий уровень неформальной занятости. В данной статье анализируется негативное влияние неформальной занятости на формирование теневой экономики и устойчивость национальной экономической системы. Кроме того, рассматриваются практические аспекты и динамика неформальной занятости на примере Республики Узбекистан, а также даются научные выводы относительно её воздействия на темпы макроэкономического развития и показатели институционального качества.

Ключевые слова: теневая экономика, неформальная занятость, незаконная деятельность, бюджет, налогообложение, рыночная экономика, рынок труда, трудовое законодательство, трудовое право, государственная и частная занятость, макроэкономический анализ, экономическая стабильность.

KIRISH

Norasmiy bandlik zamonaviy global mehnat bozorining ajralmas komponentiga aylangan bo'lib, u asosan rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga chiqaruvchi salohiyati bilan tavsiflanadi. Jahon miqyosida norasmiy bandlikning yuqori ulushi ijtimoiy tengsizlik, institutlar ishonchliligining pastligi va iqtisodiy resurslarning adolatsiz taqsimlanishi kabi strukturaviy muammolar bilan chambarchas bog'liq. Norasmiy bandlikning ommaviy shakllanishi bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorining o'z-o'zini tartibga solish mexanizmi sifatida qaraladi. Bu aholi qatlamlarining mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashuvi natijasi bo'lib, zamonaviy mehnat bozorida asimmetrik shart-sharoitlarning bevosita ko'rinishidir.



Norasmiy bandlik bevosita yashirin iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lib, u global miqyosda ishchi kuchining sezilarli qismini o'zida jamlaydi. Ilmiy manbalarda bu faoliyat sohasi hukumat tomonidan institutsional jihatdan tartibga solinmagan, soliqqa tortilmaydigan va rasmiy statistik hisobotlarda to'liq aks ettirilmaydigan iqtisodiy harakatlar majmui sifatida ta'riflanadi. Norasmiy mehnat sohasi o'zining xilma-xilligi, murakkabligi va dinamik o'sish sur'atlari bilan ajralib turadi.

Ushbu ijtimoiy-iqtisodiy hodisa hatto eng rivojlangan davlatlar kontekstida ham muayyan funksional vazifalarni bajaradi. Birinchidan, u mehnat bozoriga kira olmagan aholining bandligini ta'minlab, norasmiy tarzda faoliyat yuritayotgan qatlamlar uchun muqobil yashash manbai va ijtimoiy himoya mexanizmi vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, u ko'pincha kichik tadbirkorlik faoliyatini boshlashda ilk bosqich sifatida xizmat qiladi va rasmiylashtirish sari olib boruvchi bosqich sifatida qaraladi.

Tegishli ilmiy manbalar va empirik tadqiqotlar asosida olib borilgan tahlillar norasmiy bandlikning quyidagi salbiy oqibatlarini aniqlaydi: mehnat qonunchiligining tizimli ravishda buzilishi, ishchilarning ijtimoiy himoyasizligi, huquqiy kafolatlarining mavjud emasligi, mehnat sharoitlarining standartlarga javob bermasligi, ekspluatatsiya holatlarining keng tarqalganligi va mehnat muhofazasi bo'yicha talablarning buzilishi. Bu esa mehnat bozorining deformatsiyalanishiga olib keladi.

Norasmiy bandlik darajasining yuqoriligi mamlakatda huquq ustuvorligi va davlat boshqaruvi samaradorligiga jiddiy putur yetkazadi. Aholining katta qismi qonunlarga bepisand munosabatda bo'lib, hukumat qarorlariga bo'ysunmaslik, soliqlardan bo'yin tovlash kabi holatlarga yo'l qo'yadi. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning davlat institutlariga nisbatan ishonchini pasaytiradi hamda ularni rasmiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimdan chetda qolishga majbur etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Norasmiy bandlik zamonaviy globallashtirilgan iqtisodiy tizimning dolzarb va murakkab strukturaviy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OETT) tomonidan har yili tayyorlanadigan mehnat bozori prognozlarida aynan rasmiy mehnat munosabatlari doirasidan tashqarida faoliyat yuritayotgan shaxslarning bandlik holatini o'z ichiga oluvchi norasmiy mehnat ko'rsatkichlariga alohida urg'u berilmoqda. XMTning 2018-yilgi statistik ma'lumotlariga ko'ra, global miqyosda 2 milliardga yaqin kishi yoki jahon ishchi kuchining 61 foizi aynan norasmiy iqtisodiy sektor doirasida mehnat qilgan bo'lib, ularning 93 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi.¹ Ushbu kontingent, odatda, institutsional mehnat munosabatlari va huquqiy mehnat himoyasidan mahrum bo'lgan holda, yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy tavanakchiliklarga duchor bo'ladi, ijtimoiy himoya tizimlaridan tashqarida qoladi hamda inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga imkon bermaydigan mehnat sharoitlarida faoliyat yuritadi.

"Norasmiy bandlik" atamasi ilk bor 1973-yilda ingliz sotsiologi Kit Xart tomonidan "Ganadagi shaharlar kontekstida norasmiy daromadlar va bandlik imkoniyatlari" nomli maqolasida nazariy muomalaga kiritilgan.² Xart tomonidan ilgari surilgan yondashuv keyinchalik XMT, Jahon banki va OETT kabi nufuzli xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar tomonidan qabul qilinib, rivojlanayotgan mamlakatlarda qashshoqlikni kamaytirish strategiyalarida keng qo'llanildi. Shu bilan birga, mazkur kontsepsiya xalqaro statistik metodologiyalar tizimida norasmiy bandlikni o'lchash uchun amaliy asos sifatida ham qo'llanila boshlandi.

Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan taqdim etilgan tadqiqotlarda qayd etilishicha, norasmiy bandlikdagi ishchilar o'rtasida qashshoqlikning yuqori darajada saqlanib qolayotgani munosib mehnat, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy inklyuzivlikni ta'minlash yo'lida jiddiy tizimli to'siq bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, ayrim iqtisodiy konsepsiyalar doirasida norasmiy mehnat bozori hozirda to'liq safarbar etilmagan mehnat resursi, ayni vaqtda esa past daromadli bandlik ko'rinishida qaraydi. Biroq, bu hodisaning aniq sabablari, strukturaviy asoslari va institutsional mexanizmlari borasida ilmiy doiralarda umumiy konsensusga erishilmagan.³

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy maqsadi – yashirin iqtisodiyot shakllanish jarayonida norasmiy bandlikning tutgan o'rnini aniqlash, uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va institutsional tuzilmalar rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'sirini baholash hamda O'zbekiston misolida norasmiy bandlik darajasining hududlar kesimida dinamikasini tahlil qilish orqali uning yashirin iqtisodiyot hajmining o'sishiga qanchalik hissa qo'shayotganini o'rganishdan iborat. Mazkur tadqiqot nazariy konsepsiyalar va empirik tahlil usullarining uyg'unlashtirilgan yondashuvi asosida amalga oshiriladi.

1 Manba: Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture. Third Edition. International Labour Office, Geneva 2018. 5 - bet

2 Manba: Keith Hart. Informal Income Opportunities and Urban Employment in Ghana. The Journal of Modern African Studies, Vol. 11, No. 1 (Mar., 1973).

3 Manba: Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) rasmiy veb-sayti <https://www.ilo.org/>

Nazariy yondashuv doirasida norasmiy bandlik darajasini aniqlash va baholash masalalariga oid ilg'or ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari hamda yetakchi olimlarning ilmiy izlanishlari chuqur tahlil qilinadi. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO), Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD), Jahon banki kabi nufuzli xalqaro institutlar tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar hamda ingliz sotsiologi va olimi Kit Xart tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar va empirik tadqiqotlar mazkur izlanishning asosiy metodologik tayanchini tashkil etadi.


Empirik tahlil bosqichida miqdoriy tadqiqot usullariga tayangan holda statistik ma'lumotlar va ularning grafik vizualizatsiyasi orqali norasmiy bandlik darajasining hududlar va iqtisodiy sohalar kesimidagi o'zgarishlar dinamikasi kompleks ravishda baholanadi. Ushbu jarayonda mintaqalararo tafovutlar va sektorlar kesimidagi tendensiyalar aniqlanib, ularning yashirin iqtisodiyot hajmiga bo'lgan potensial ta'siri iqtisodiy-matematik yondashuvlar asosida o'rganiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi orasida norasmiy bandlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri — bu ta'lim darajasidir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim darajasi oshgani sari norasmiy bandlik darajasi sezilarli darajada kamayadi. Bundan tashqari, qishloq hududlarida yashovchilar orasida norasmiy mehnat faoliyatining ulushi shahar aholisiga nisbatan deyarli ikki baravar yuqori ekani kuzatiladi. Norasmiy band aholining 90 foizdan ortig'i aynan qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritadi, bu esa ushbu tarmoqni norasmiy iqtisodiyotning eng yuqori konsentratsiyalangan sektori sifatida namoyon qiladi.

Zamonaviy mehnat bozorlarida norasmiy bandlikning ta'rif va aniqlash mezonlari davlatlar kontekstida sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, Janubiy Koreyada norasmiy bandlik milliy pensiya tizimida qatnashmayotgan fuqarolar orqali belgilansa, Chexiya va Vengriyada — yozma mehnat shartnomasi mavjud bo'lmagan yollanma ishchilar asosida aniqlanadi. Meksikada ushbu toifa tibbiy sug'urtadan chetda qolganlar orqali tavsiflanadi, Polshada esa — ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb etilmagan fuqarolar norasmiy band deb qaraladi. Turkiyada esa mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan, biroq ijtimoiy ta'minot idoralarida rasmiy ro'yxatdan o'tmagan shaxslar ushbu toifaga kiritiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, norasmiy bandlik fenomeni faqatgina iqtisodiy o'sish sur'atlari past bo'lgan yoki o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarga xos bo'lmay, balki rivojlangan davlatlar mehnat tizimlarida ham mavjud bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida e'tirof etiladi.

Bu sohaga xos bo'lgan 1-rasmda ko'rsatilgan salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar uning ijobiy tomonlaridan ustun keladi. Ayniqsa, uzoq muddatli istiqbolda bunday faoliyatning ommaviylashuvi mehnat bozorining barqarorligiga, fiskal tizimga, ijtimoiy himoya institutsional strukturalariga va davlatning fuqarolar oldidagi ishonchligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Norasmiy bandlikning salbiy oqibatlari⁴


4 Muallif tomonidan shakllantirildi. Manba: Do'smatov S.M, Tagayev B.E. O'zbekistonda mehnat bozorida norasmiy bandlik: uning holati va kamaytirish usullari.



Yashirin iqtisodiyotning shakllanishi va barqaror faoliyat yuritishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida norasmiy bandlik darajasini izchil qisqartirish masalasi alohida strategik dolzarblilik kasb etadi. Mazkur jarayon nafaqat makroiqtisodiy muammolar bilan, balki institutsional nomukammalliklar, mehnat huquqlari kafolatlarining yetarli darajada ta'minlanmagani, rasmiy mehnat bozorining segmentatsiyasi, madaniy-an'anaviy qarashlar va ijtimoiy ong darajasi bilan ham murakkab tarzda o'zaro bog'liqdir. Shu boisdan, norasmiy bandlikni bartaraf etish yoki minimal darajaga tushirishga qaratilgan har qanday siyosiy-iqtisodiy chora-tadbirlar kompleks yondashuvni, huquqiy va institutsional mexanizmlarning takomillashtirilishini, hamda bandlik siyosatini ijtimoiy inklyuzivlik tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Mazkur masalaning yechimi yashirin iqtisodiyot hajmining qisqarishiga, mehnat bozori barqarorligining oshishiga va iqtisodiyotni rasmiylashtirish jarayonlarining jadallashishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston respublikasida norasmiy bandlik darajasi tahlili

O'zbekiston Respublikasida norasmiy mehnat faoliyatining yuqori darajada tarqalganligi mamlakatdagi yashirin iqtisodiyot miqyosining ortishiga bevosita omil sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu holat iqtisodiy tizimda rasmiy sektordan chetda faoliyat yuritayotgan mehnat resurslarining salmoqli ulushga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur muammoni chuqur tahlil etish mamlakatda yashirin iqtisodiy faoliyatning strukturaviy ildizlarini aniqlash, institutsional islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash hamda mehnat bozori barqarorligini ta'minlash borasida samarali strategiyalar ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi (2-rasm).




2-rasm. O'zbekistonda rasmiy va norasmiy bandlik darajasi⁵

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga kelib, O'zbekiston Respublikasida umumiy band aholining 39,0 foizi norasmiy sektorda mehnat faoliyatini amalga oshirmoqda. Bu ko'rsatkich qariyb 5,5 million nafar fuqaroni tashkil etib, mamlakat mehnat bozorida norasmiy bandlik muammosi hanz dolzarbligicha qolayotganini anglatadi.

So'nggi yillarda respublikada mehnatga layoqatli aholining norasmiy sektorda bandlik darajasi muayyan ijobiy o'zgarishlarga uchraganini ta'kidlash lozim. Jumladan, 2020-yilda norasmiy bandlik darajasi 42,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 39,0 foizgacha kamaygan. Ushbu jarayon to'rt yil davomida 3,8 foiz bandga yoki 200 ming nafardan ortiq fuqaro miqdorida qisqarish sodir bo'lganini ko'rsatadi. Mazkur ijobiy tendensiyaning shakllanishiga bir qator institutsional va iqtisodiy omillar sabab bo'lgan. Jumladan, o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatining davlat tomonidan qonuniy maqomda e'tirof etilishi, ularning soliqqa tortilish tizimining soddalashtirilishi va rasmiy mehnat munosabatlariga integratsiyalashuvi norasmiy sektordan rasmiy sektorga o'tish jarayonini rag'batlantirgan muhim omillardan biridir. Bundan tashqari, 2020–2023-yillar oralig'ida mamlakatda ishsizlik darajasining 3,7 foiz bandga pasaygani bilan norasmiy bandlik o'rtasida bevosita proporsional bog'liqlik mavjudligi kuzatiladi. Ya'ni, ishsizlik ko'rsatkichining kamayishi natijasida aholining muayyan qismi rasmiy ish o'rinlari bilan ta'minlanib, norasmiy mehnat shakllaridan voz kechgan. Bu holat, o'z navbatida, rasmiy mehnat bozori infratuzilmasining takomillashayotganidan va davlat siyosatining samarali amalga oshirilayotganidan dalolat beradi (3-rasm).

5 Muallif tomonidan shakllantirildi. Manba: <https://stat.uz/uz/> O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb sayti va Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/norasmiy_bandlik?utm_source



3-rasm. O'zbekiston respublikasida norasmiy sektorda bandlarning hududlar bo'yicha taqsimoti (foizlarda)⁶

So'nggi yillarda olib borilgan kuzatuvlar va statistik tahlillar O'zbekiston hududlari bo'yicha norasmiy bandlik darajasida sezilarli mintaqaviy tafovutlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2020–2023-yillar davomida norasmiy bandlikning eng yuqori darajasi Namangan viloyatida qayd etilgan bo'lib, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 52,1 foizni tashkil qilgan. 2023-yilda esa mazkur viloyatda norasmiy bandlik darajasi nisbatan pasayib, 50,0 foiz atrofida saqlanib qolgan.


Shuningdek, 2023-yilda Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida ham norasmiy bandlik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi — ushbu hududlarda ushbu ko'rsatkich taxminan 49 foiz atrofida bo'lgan. Qashqadaryo viloyatida esa 2023-yil holatiga ko'ra norasmiy band aholining ulushi 48,4 foizni tashkil qilgan. Bu holat mazkur viloyatlarda norasmiy mehnat shakllarining yuqori saqlanib qolayotganini anglatadi va mehnat munosabatlari-ning rasmiylashtirilish darajasini oshirish borasida qo'shimcha institutsional choralar zarurligini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan, eng past norasmiy bandlik darajalari Toshkent shahri va Navoiy viloyatida qayd etilgan. Ayniqsa, Buxoro va Toshkent viloyatlarida ijobiy dinamikaga ega bo'lgan barqaror pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2020-yilda Toshkent viloyatida norasmiy bandlik 43,6 foizni, Buxoro viloyatida esa 38,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 8,7 va 5,8 foiz punktga kamayib, 34,9 va 32,3 foiz darajasiga tushgan.

Yana bir diqqatga sazovor jihat shuki, Navoiy viloyatida norasmiy bandlik darajasi 2020-yilda 24,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 21,8 foizgacha qisqargan. Toshkent shahrida esa bu jarayon yanada jadal kechgan bo'lib, norasmiy bandlik 14,7 foizdan 10,6 foizgacha kamaygan.

Ushbu raqamlar norasmiy bandlikka qarshi olib borilayotgan tizimli islohotlarning, xususan rasmiy ish o'rinlari yaratish, mehnat shartnomalarining huquqiy asoslarini kuchaytirish, hamda o'zini o'zi band qilgan fuqarolarni qonuniy mehnat munosabatlariga jalb etish borasidagi chora-tadbirlardan viloyatlar kesimida ham kutilgan natijalar olinayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mintaqalar o'rtasida mavjud tafovutlar asosida hududiy iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini diversifikatsiyalash va norasmiy sektor ulushini kamaytirishga qaratilgan individual yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati dolzarbligicha qolmoqda (4-rasm).

6 Muallif tomonidan shakllantirildi. Manba: <https://stat.uz/uz/> O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb sayti va Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/norasmiy_bandlik?utm_source



4-rasm. Norasmiy sektorda bandlarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanishi(ming kishi)⁷

Norasmiy sektorda bandlarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanishini tahlil qiladigan bo'lsak, Norasmiy bandlik darajasini tashkil etadigan faoliyat turlardan biri Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaliklarda bandlar hisobiga to'g'ri kelmoqda, qaysiki 2020-yilda 1 707.3 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 1 566.1 ming kishini tashkil etgan. Mavsumiy ishlarda ishlaydigan aholi soni ham 2020-yilda 1 010.7 ming kishi va 2023-yilda 949 ming kishini tashkil etgan. Mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmasdan tadbirkorlarda ishlovchilar, Ro'yxatga olinmagan tadbirkor sifatida savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchilar va Tadbirkorlikning boshqa turlari bandlar (kirakashlik, xunarmandchilik, aholiga xizmat ko'rsatish) ham 2023-yilda 2020-yilga nisbatan keskin kamayagan bo'lib, 2023-yilda mos ravishda 873.6 ming, 732.1 ming va 702.8 ming kishi ushbu norasmiy sohalarida ishlamoqda. Bir martalik ishlarda bandlar soni ham 2020-2023-yillarda 675.2 ming kishidan 642.5 ming kishiga kamaygan. Bu ijobiy tendensiyalar bevosita Umumiy norasmiy bandlar darajasining tushishiga sabab bo'lgan.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot ko'lamini aniqlash va uni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2024-yilning 16-yanvar kuni O'zbekiston Prezidenti raisligida makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham yashirin iqtisodiyot muammosi bugungi kunda eng dolzarb masala ekanligi qayd etildi. Ushbu yig'ilishda Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan yashirin iqtisodiyotga alohida e'tibor qaratib, 2023-yilda yashirin iqtisodiyotdan davlat byudejtidan jami 30 trln so'm, yalpi ichki mahsulotga 135 trln so'm zarar yetkazilgani keltirilib o'tilgan. Ushbu yig'ilishda yashirin iqtisodiyot hajmiga ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida norasmiy bandlik masalasiga ham alohida tanqid qilinib, 2023-yilda 27 mingta qurilish korxonasining 41 foizi yoki 10 947 mingtasi o'zing moliyaviy hisobotida faqat bir nafar ishchisini rasmiy xodim sifatida bo'lsa, shundan 2 249 tasi Toshkent shahrida, 1 087 tasi Toshkent viloyatida, 837 tasi Samarqand viloyatida va hokazo. Davlat rahbari tomonidan Norasmiy bandlik darajasini kamaytirishga qaratilgan tizimli choralar ko'rilishi bo'yicha topshiriqlar berilgan.

Byudjet mablag'larining yarmidan ko'pi ijtimoiy sohaga yo'naltirilishi inobatga olinsa ushbu yashirin iqtisodiyot hisobidan davlat byudjetiga tushgan mablag'lar hisobiga quyidagilardan biri amalga oshirilgan bo'lar edi:

- O'rtacha 8 milliard so'mlik qiymat bilan 3 750 ta umumta'lim maktabi qurish imkoniyati yaratilgan bo'lardi.
- O'rtacha 9,5 milliard so'mga 3 158 ta ambulator tibbiy muassasa tashkil etish mumkin edi.
- Oylik maoshni 7,8 mln so'mgacha oshirish uchun zarur bo'lgan yillik 45,6 mln so'mlik xarajat hisobida 657 895 nafar tibbiyot xodimining maoshini oshirish mumkin edi.
- Oylik maoshni 7,2 mln so'mgacha oshirish uchun zarur bo'lgan yillik 38,4 mln so'mlik xarajat hisobida 781 250 nafar o'qituvchining maoshini oshirish imkoniyati mavjud edi.

7 Muallif tomonidan shakllantirildi. Manba: Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/norasmiy_bandlik?utm_source=c

Garchi O'zbekiston iqtisodiyotida norasmiy bandlik masalasi uzoq yillar davomida yetarli darajada e'tibordan chetda qolib kelgan va tizimli ravishda ko'rib chiqilmagan bo'lsada 2017–2021 yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi"ning qabul qilinishi bilan mehnat va bandlik sohasida chuqur institutsional islohotlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, xalqaro tajribaga asoslangan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritalari" ishlab chiqildi. Ular mehnat unumdorligini oshirish, haqiqiy daromadlarni ko'paytirish, bandlik darajasini oshirish, ishsizlikni kamaytirish, norasmiy bandlikni qisqartirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, shuningdek, kichik biznes, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan.

2019-yil yanvar oyidan boshlab jismoniy shaxslar daromadlariga yagona soliq stavkasi 12 foiz qilib belgilanib, ijtimoiy yuklama sezilarli darajada kamaytirildi. Shuningdek, fuqarolarning shaxsiy pensiya jamg'arma hisobvaraqlariga 0,1 foiz ajratma joriy etildi va ilgari fuqarolar daromadidan ushlab qolinib, Davlat budjetidan tashqari Pensiya jamg'armasiga yo'naltirilgan sug'urta badallari bekor qilindi. Mamlakatda soliq tizimi soddalashtirildi, bu esa norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish, rasmiy bandlikni kengaytirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qildi.

Oxirgi yillarda ham yashirin iqtisodiyot ko'lamini keskin qisqartirish orqali mamlakatda sog'lom raqobat va xususiy biznesni rivojlantirish choralari ko'rilmoqda. Xususan, «O'zbekiston - 2030» strategiyasida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq bazasini qo'shimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish o'z ifodasini topgan.

Norasmiy bandlikni tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar:

- ishlab chiqarish, xizmatlar sohasini, oilaviy biznesni va kasanachilikni yanada rivojlantirish uchun mahalla salohiyatidan foydalangan holda norasmiy tadbirkorlarni ro'yxatga olish (rasmiy band qilish) mexanizmini takomillashtirish;
- mahallalarda norasmiy band bo'lgan aholi o'rtasida so'rov o'tkazish, norasmiy bandlik ulushini qisqartirish, mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish;
- mahallalarda mavjud bo'lgan norasmiy xizmat ko'rsatishni rasmiylashtirish maqsadga muvofiq⁸

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashirin iqtisodiyotning shakllanishi ko'plab omillar ta'sirida yuzaga keladi, jumladan, soliq mexanizmlarining samarali ishlamasligi, korrupsiya holatlari, monopolistik tuzilmalar hukmronligi, iqtisodiy jinoyatlar va norasmiy bandlik mavjudligi. Shulardan norasmiy bandlik yashirin iqtisodiyotning rivojlanishida eng muhim va hal qiluvchi determinantlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu hodisa nafaqat O'zbekiston, balki global miqyosda keng tarqalgan bo'lib, uning mavjudligi davlat iqtisodiy tizimiga va byudjet daromadlari shakllanishiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada fiskal barqarorlikka putur yetishi, makroiqtisodiy boshqaruv samaradorligining pasayishi hamda iqtisodiy rivojlanishning institutsional asoslari zaiflashishi ehtimoli ortadi.

O'zbekistonda norasmiy bandlik darajasini qisqartirish masalasida xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirib joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi ilg'or amaliyotlardan biri sifatida Qozog'iston Respublikasining yondashuvi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur mamlakat qisqa vaqt ichida norasmiy band aholining ulushini 16 foizgacha kamaytirishga erishgan bo'lib, bu ko'rsatkich Germaniya (16%), Avstriya (16%) va Fransiya (15%) kabi rivojlangan davlatlar darajasi bilan tenglashgan. Ushbu muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri — Yagona yig'ma to'lov (YYT) tizimining joriy etilishi bo'ldi. Mazkur mexanizm orqali norasmiy faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi mehnatkashlar o'z faoliyatini davlat organlarida rasmiy ro'yxatdan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lib, imtiyozli shartlarda daromad solig'i, pensiya ajratmalari hamda ijtimoiy sug'urta to'lovlarini yagona paket ko'rinishida amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar. Natijada, fiskal bazaning kengayishi, ijtimoiy himoya qamrovining ortishi va norasmiy bandlikning sezilarli darajada qisqarishi ta'minlangan.⁹

O'zbekistonda norasmiy bandlik darajasini kamaytirishda oid takliflar

Soliq va ijtimoiy to'lov stavkalarini optimallashtirish. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda ijtimoiy sug'urta badallari stavkalarini jahon amaliyotidagi ilg'or standartlarga mos ravishda pasaytirish orqali rasmiy mehnatga o'tishni iqtisodiy jihatdan jozibador qilish,

Tadbirkorlik subyektlari uchun differensial imtiyozlar tizimini joriy etish. Rasmiy bandlik darajasiga qarab korxona va tashkilotlarga turli xil iqtisodiy preferensiyalar taqdim etish, jumladan, past foizli kreditlar, kommunal to'lovlarda chegirmalar, shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash,

Ijtimoiy shartnoma" mexanizmini joriy etish. Mehnat bozoriga yangi kirib kelgan yoki uzoq muddat davomida barqaror ish topa olmagan, shuningdek, ehtiyojmand oilalar vakillariga o'zini o'zi band qilganidan so'ng

8 Manba: Институт прогнозирования и макроэкономических исследований

Институт макроэкономических и региональных исследований https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/norasmiy_bandlik

9 Manba: Министерство труда и социальной защиты населения Казахстана. <https://www.enbek.gov.kz/ru/>



ham ma'lum muddat davomida ishsizlik nafaqasini ajratish, buning evaziga mehnat faoliyatini rasmiylashtirish majburiyatini yuklash,

Nomoliyaviy rag'batlantirish choralari qo'llash. Ish beruvchilar va ish faoliyatini endi boshlagan xodimlar uchun kasbiy malaka oshirish dasturlari, bepul yoki imtiyozli tibbiy ko'rik, huquqiy maslahat xizmatlari kabi qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlarni taqdim etish.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish. Rasmiy mehnat faoliyatini endi boshlagan fuqarolarga ijtimoiy to'lovlar hisobidan farzandlari uchun maktabgacha ta'lim muassasalariga to'lovlarda chegirmalar taqdim etish

Bunday turdagi tashabbuslarning amaliyotga tatbiq etilishi ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida mehnat faoliyatini rasmiylashtirishga bo'lgan iqtisodiy va institutsional rag'batlarni sezilarli darajada kuchaytiradi. Natijada rasmiy sektorning jozibadorligi ortib, norasmiy bandlik darajasining bevosita qisqarishiga hamda mehnat bozori barqarorligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture. Third Edition. International Labour Office, Geneva 2018. 5 - bet
2. Keith Hart. Informal Income Opportunities and Urban Employment in Ghana. The Journal of Modern African Studies, Vol. 11, No. 1 (Mar., 1973).
3. Liu, C., & Zheng, L. (2022). The effect of informal employment on fertility intention: theory and empirical evidence. Finance and Economics Science, 2022, No.414(09), 107-122.
4. <https://stat.uz/uz/> O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb sayti
5. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institute (MHTI) https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/norasmiy_bandlik?utm_source
6. Do'smatov S.M, Tagayev B.E. O'zbekistonda mehnat bozorida norasmiy bandlik: uning holati va kamaytirish usullari.
7. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) rasmiy veb-sayti <https://www.ilo.org/>
8. O'zbekiston respublikasi Marlaziy bankining veb sayti <https://cbu.uz/uz/>
9. Министерство труда и социальной защиты населения Казахстана. <https://www.enbek.gov.kz/ru/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100